ularda davrimizga xos va mos dunyoqarashni yaratish kabi mas'uliyatli vazifalar o'z yechimini kutayotgan bir paytda Ibrohim Mo'minov falsafiy maktabi vakillarning o'rni yaqqol sezilib turadi.

Zero, akademik S.Shermuhamedov yozganlaridek: "I.Mo'minov asos solgan ilmiy-falsafiy maktab o'z faoliyatini avj oldirish uchun hamma imkoniyatlarga ega bo'lgan holda, o'z asoschisi aytgan hikmatni muqaddas qadrlaydi: insonga, o'z millatiga, umuman, O'zbekiston xalqiga mehr va hurmat, uning gullab-yashnashi uchun xizmat qilish va yuksak mas'uliyat" [4;17-b.] bilib, Vatanimiz ravnaqiga xizmat qilib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Navro'zova G. Naqshbandiya-hushyorlik yo'li. Monografiya, T.,"Fan", 2024.

(2). Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. Ikkinchi kitob, T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2022.

(3). O'zbek falsafasi tarixi. (III jild). T., "Muharrir" nashriyoti, 2020.

(4). Shermuhamedov S. Xalq ma'naviyati va ma'rifatiga baxshida etilgan barakali umr. T., "Fan", 2004.

(5). G'aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog'lan, odamzod. T., "Sharq", 1997.

(6). G'oyibov N. Donishmand. T., "O'zbekiston", 2008.

**Botirov Zafar Saydullayevich (Alfraganus universiteti o'qituvchisi)**

## O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY DAVLAT QURUSHNING HUQUQIY VA IQTISODIY ASOSLARI

***Annotasiyaю*** *Maqolada ijtimoiy davlatning huquqiy asoslarini shakllantirish asosida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va tarbiya masalasiga e'tibor qaratilgan. Shu o'rinda jamiyatni islohotlar dinamikasida muhim ko'rsatkishlarga erishilib kelmoqda va bu jarayonlar jamiyat ma'naviy hayotini ijtimoiy davlatga bog'liqligi yaxlit tizim sifatida samarali yoritiladi. Ular o'rtasidagi ijtimoiy-funksional munosabatlar uzviyligi to'g'risida qarashlari, ta'riflari bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *ıjtimoiy davlat, yoshlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, huquq, iqtisod, qadriyat, integrativ, funktsional, turmush tarzi, xulq, mehnat, odob-axloq.*

**Батыров Зафар Сайдуллаевич (преподаватель университета Альфраганус)**

## ПРАВОВЫЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОСТРОЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

***Аннотация.*** *В статье рассматривается проблема обеспечения социальной стабильности и воспитания на основе формирования правовых основ социального государства. На данном этапе достигаются существенные показатели в динамике социальных реформ, и эти процессы наглядно демонстрируют зависимость духовной жизни общества от социального государства как целостной системы. Представлены их взгляды и определения относительно согласованности социально-функциональных отношений между ними.*

***Ключевые слова:*** *социальное государство, молодежь, духовно-нравственное воспитание, право, экономика, ценность, интегративный, функциональный, образ жизни, поведение, труд, этика.*

**Batyrov Zafar Saidullaevich (Lecturer at Alfraganus University)**

## LEGAL AND ECONOMIC BASIS FOR BUILDING A SOCIAL STATE IN UZBEKISTAN

***Annotation.*** *The article examines the problem of ensuring social stability and education based on the formation of legal foundations of a social state. At this stage, significant indicators are achieved in the dynamics of social reforms, and these processes clearly demonstrate the dependence of the spiritual life of society on the social state as an integral system. Their views and definitions regarding the consistency of social and functional relations between them are presented.*

***Key words:*** *Social state, youth, spiritual and moral education, law, economics, value, integrative, functional, lifestyle, behavior, labor, ethics.*

**Kirish.** Ijtimoiy davlatning huquqiy asoslarini shakllantirish uzoq muddatli jarayon bo'lib, bu jarayonda davlat, Fuqarolar jamiyati va xalqaro hamkorlik ham muhim rol o'ynaydi. Respublikamizda tizimli olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar tufayli insonning hayot kechirish darajasi ham kundan-kunga ortayotganligi davr yaqqol aks ettirlmoqda. Inson qadri davlatimizda eng ustuvor masala bo'lib, jamiyat tizimlarida o'z ifodasini topib kelmoqda. Ijtimoiy davlatning maqsadi inson manfaatlarini har tamonlama ta'minlashdan iborat bo'lib, mamlakatimizdagi barcha ko'rsatkichlar xoh u ta'lim bo'lsin, xoh u ishlab chiqarish bo'lsin, birinchi navbatda, aholi turmush darajasi va sifati bilan baholanamaqda. Farovonlikning asosiy kaliti insonga e'tibor bo'lib, ko'p jihatdan, u kishilarning hayotiy muhim ehtiyojlarini qondirilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Shu o‘rinda, davlat hokimiyati shakllarining o‘zgarishi davrni, bosqichni, vaqtni talab etishi tabiiy jarayondir. Ushbu o‘zgarishlar hokimiyatning konstitutsion asoslarini o‘zgartirishi bilan bog‘liq bo‘lib, taraqqiyot jarayonida eski tuzum doirasidan chiqadi hamda turli rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan iqtisodiy asosga, boshqaruv uslubiga, hokimiyatni amalga oshirish shakli, milliy-madaniy merosi, urf-odatlari, va qadriyatlari xilma-xilligi bilan bir-biridan farq qiladigan turli jamiyatlar bilan muloqotga kirishadi. Zamon, voqealar, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy jarayonlarni anglatadigan keng tushuncha bo‘lsa, o‘tish davri – tarixiy taraqqiyotning miauuap sifatiy holatdan sifatiy holatga o‘tishini anglatadigan tushunchadir, ua'ni, bir tizimdan ikkinchi tizimga o‘tish davri tarixan miauuap vaqt kesimida sodir bo‘lib, u asrlar davomida shakllanib qolgan ijtimoiy (davlatlararo, sivilizatsiyalararo, guruhlararo va h.k.) munosabatlarning vaqti kelib eskirishi tufayli uapdi munosabatlar tizimiga asos solinishini anglatadi. Jamiyatlarning xilma-xilligi umumiylik bilan bog‘liq xususiyatlarni va alohidalikni inkor etmaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni shakllantirishning o‘zaro bog‘liqligi, ularni bir-birisiz ajratib bo‘lmaydigan holda qurishning mumkin emasligi asoslab berilgan. Huquqiy davlat doktrinasining konstitutsiyaviy poydevorlari va asosiy tamoyillari tahlil qilingan. Xususan, B.U.Tojixonovning dissertatsiyasida huquqiy davlatni barpo etish jarayonida davlatning huquqiy islohotlarining obyektiv zarurati, shuningdek, huquqiy davlat tamoyillari bilan bog‘liq masalalar ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Bundan tashqari, huquqiy davlat tushunchasi va uning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari masalasida A.X.Saidov, F.Musayev, F.A.Muhitdinova, X.T.Odilqoriyev, Sh.A. Sadullayev M.A.Ahmedshoyeva kabi huquqshunos olimlarning hissasini alohida ta’kidlash lozim. S. Otamurodov tadqiqotlarida milliy rivojlanishning, jumladan fuqarolik jamiyat va huquqiy davlatni barpo etishning falsafiy jihatlari yoritib berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Siyosiy jarayonlarni, institutlarni, ijtimoiy xulq-atvorni va siyosiy hayotning boshqa jihatlarini tahlil qilish imkonini beradigan keng ko‘lamli tadqiqot usullaridan foydalaniladi. Mazkur tadqiqot doirasida ham aynan shunday metod va usullar qo‘llanildi. Jumladan, falsafiy tahlil, qiyosiy tahlil, institutsional tahlil, tizimli yondashuv, tarixiy metodlari, tadqiqotning empirik usullaridan statistik tahlil, kontentni tahlil qilish, tajriba-sinov metodlari, shuningdek, intervyu, sotsiologik usullar, ya’ni, fuqarolarning siyosiy munosabati va xatti-harakatlarini o‘rganish uchun sotsiologik yondashuvlardan (masalan, jamoatchilik fikrini o‘rganish) foydalanish, psixologik usullar, siyosiy xulq-atvor va qaror qabul qilishni psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilish kabi metodlardan samarali foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ijtimoiy jihatdan mamlakatimiz barqaror, olib borilayotgan islohotlar dinamikasida muhim ko‘rsatkishlarga erishilib kelmoqda va bu jarayonlar jamiyat ma’naviy hayotini sog‘lom turmushni shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Barqaror taraqqiyot ta’minlangan jamiyatda fuqarolarining ijtimoiy va huquqiy dunyoqarashi o‘sib boradi, bu esa ijtimoiy ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlovshi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy beqaror jamiyatda esa taraqqiyot tamoyillari pasayib borish natijasida kishilarning hayot tarzida istiqbolli an’analar vujudga kelmaydi. “Ijtimoiy barqarorlik” kategoriyasi “Falsafa qomusiy lug‘at”da quyidagisha ta’riflangan: “Barqarorlik (ijtimoiy) – jamiyatdagi tinch-totuvlik va uni mustahkamlash ushun shart-sharoitlarning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, kuchlar va siyosiy partiyalar o‘rtasidagi hamjihatlik vaziyati; davlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy kelishuv holatining muttasil davom etishidir” [2;45-b.]. “Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati” kitobida esa ijtimoiy barqarorlikka “Jamiyat hayotining osoyishtaligi, ijtimoiy tuzum elementlarining uyg‘unligi, jamiyatdagi ijtimoiy birliklar vakillarining hamkorligi, hamjihatligi” [3;96-b.], deb ta’rif berilgan.

Ijtimoiy davlatning huquqiy, moddiy-ma’naviy asosi hamda ijtimoiy davlatning tamoyillarini mustahkamlash uchun Konstitusiyada ijtimoiy davlatning asosiy tamoyillari, fuqarolarning ijtimoiy huquqlari va davlatning ularni ta’minlash majburiyatlari aniq belgilab qo‘yilishi kerak. Shu o‘rinda, fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini kengaytirish, mehnat huquqi, ta’lim olish huquqi, sog‘liqni saqlash huquqi, pensiya ta’minoti huquqi kabi huquqlarni mustahkamlash zarur. Demak, ijtimoiy barqarorlik bu jamiyatning har tomonlama taraqqiyotining muhim asosi, tinchlik va totuvlik, aholining turmush farovonligining ta’minlanishi, ijtimoiy sog‘lom muhitning shakllanishi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotning doimiy taraqqiyoti ushun mustahkam zamin va shart-sharoitlarning mavjudligi, ijtimoiy muvozanatning saqlanishidir. Demak, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik jamiyatdagi barsha sotsial institutlar, ijtimoiy qatlamlar va fuqarolar o‘rtasidagi doimiy hamjihatlik vaziyati, davlat va nodavlat tuzilmalar o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlik holatining davomiyligi, jamiyatdagi ijtimoiy birliklar o‘rtasida o‘zaro murosa, hamkorlik va hamjihatligini muntazam saqlanib turishidir.

Ijtimoiy davlat va uning asoslar to‘g‘risida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson qadri borasida bir qancha muhim moddalar qayd etilgan. Jumladan, “2-moddada davlat xalq

irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar. 20-moddada insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi. 54-moddada insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" [4;15-b.], deb ta'kidlangan.

Jamiyatlarning tizimli taraqqat bosqichlaridan iborat ekani, ular oldida turgan asosiy vazifalar nimalardan iborat, demak ular ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy vazifalardir, ular quydagilar:

•birinchidan, jamiyat taraqqiyotining bir tizimdan boshqa bir tizimga o'tishi;

•ikkinchidan, o'tish davrining ijtimoiy hayotning rivojlanishi, mo'ljallari, maqsadi, jamiyat hayoti barcha jabhalariga ijobiy ta'sir etishi;

•uchinchidan, jamiyatda yuzaga keladigan o'zgarishlarning mazmuni va xarakteri.

Jamiyatlardagi o'zgarishlar ham turli vaqtda sodir bo'lganini, mazmuni va mohiyati, xarakterli jihatlari bilan bir-biridan farq qilishini hisobga olish lozim. Jahon jamiyatlari "tartibsiz", "stixiyali" holatdan o'tgan va rivojlana boshlagan. Rivojlangan jamiyatlarga xos ijtimoiy-siyosiy tizim va munosabat-ar, ularning amalga oshiruvchi qonun-qoidalari, qadriyatlari, milliy-madaniy megos sifatida shakllangan. Jamiyatning qiyofasi o'zgarib, tizim va tizim osti unsurlari ham ana shu jarayonlarda o'zgarib, tadrijiy tarzda bosqichlarning taraqqiyotini ko'rish mumkin. Jamiyatlar o'z taraqqiyoti jarayonida ko'proq demokratik o'zgarishlarga ehtiyoj sezgan. Demokratiya boshqaruv usuli xalqlarning xohish-irodasi sifatida uni qadriyatga aylanishi uchun sharoit yarata boshlagan.

Ilmiy adabiyotlarda "iqtisodiyotda o'tish davrini amalga oshirayotgan mamlakatlar" yoki "iqtisodiy o'tish davri davlatlari" tushunchalari ishlatilmoqda. Bu tushunchalar miauuap davlat va jamiyat qurilishi modelida iqtisodiy tizimni tubdan o'zgartirishlarni boshidan kechirayotgan mamlakatlarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu tushunchalarning qo'llanilishi o'tish davri faqat iqtisodiyotga taalluqli bo'ladi, degani emas. Ayni paytda bu sohada yaratilgan imkoniyat jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Jamiyatlardagi turli o'tish davri o'lchovlari bir xil bo'lsa-da, ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlar ham, ular to'qnashayotgan xavf-xatarlar ham umumiy xarakterga ega ekani qayd etiladi. Umuman olganda, o'tish davri jamiyat hayotining barcha sohalariga tegishli ekani bilan xarakterlanadi. Bu esa o'tish davri vazifalari bilan bog'liq bo'lib, bozor munosabatlarini tan olmagan sobiq sovet tuzumidan farqli ravishda o'tish davriga o'ziga xos mazmun bag'ishlaydi.

Shu ma'noda, yangi jamiyatga o'tish davri ham mustaqillikka egishgan har bir davlat uchun umumiy qonuniyat bo'ladi. Mustaqillini qo'lga kirititgan davlat, dastlab, shakllanadi va ma'lum tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'z boshidan o'tkazadi. Har bir davlatning vujudga kelish, rivojlanish va yuksak darajasiga ko'tarilish jarayonlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarning bir ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish jarayoni aynan takrorlanmaydigan hodisadir. Ammo o'tish davrining barcha mamlakatlar uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlari ham mavjud. Ular siyosiy hokimiyatni o'zgartirish orqali tub siyosiy islohotlarni amalga oshigish, iqtisodiyot negizlarini tubdan o'zgartirish, ma'naviy qadriyatlarini tiklash, yangi tafakkur va turmush tarzini shakllantirishda namoyon bo'ladi.

Shunga ko'ra, o'tish jarayonini amalga oshirish davlatlarda yashayotgan xalqlarning mentaliteti, qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, turlicha vaqt va ma'no-mazmunga ega bo'ladi. Ya'ni, jamiyatning demokratik tizimga o'tish xususiyati mazkur jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishi uchun zarur bo'lgan o'tish davrining maqsad va vazifalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari bilan bog'liq hodisadir. Totalitar rejimdan demokratik jamiyatga o'tish strategiyasi, uning amalga oshirilishiga qarab o'tish davrining ma'no-mazmunini aniqlash mumkin bo'ladi. Hozirgi davr taraqqiyoti demokratik bosqichga o'tishning zarurligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, taraqqiyotning yangi, demokratik bosqichiga o'tishda mustaqillikka erishgan mamlakat uchun alohida davr, "o'tish davri"ga ehtiyoj yuzaga keladi. O'tish davrining talab etilishi, jamiyatlarning qanday rivojlanishi ana shu taraqqiyot bosqichlarining o'ziga xosligi, ularda mavjud bo'ladigan muammolar ko'lamini aniqlash va hal qilish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq. Chunki jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish jarayoni keng ko'lamdagi aniq sohalar bilan bog'liq vazifalarni qamrab oladi. Vazifalarni bajarishning obyektiv va subyektiv asoslarining xarakteri va ko'lami bilan bog'langan masalalrni hal qilish bilan bog'liq bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, "O'tish davri" tushunchasining qo'llanilishi tarixiy ildizga ega bo'lsa-da, XX asrning 90-yillaridan boshlab "O'tish davri davlatlari" iborasi ko'proq sobiq sotsializm lageridan mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan mamlakatlarga nisbatan ishlatilib, asosan, AQSH va g'arb mamlakatlari siyosatshu-

noslari tomonidan ilgari surilganini ko‘rish mumkin. Shu ma’noda ilmiy va ommabop adabiyotlarda rivojlanish yo‘llaridan borayotgan mamlakatlarning barchasiga nisbatan “O‘tish davri mamlakatlari” iborasi qo‘llanilayotgani har doim ham u yoki bu mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy holatning mohiyatiga to‘g‘ri kelavermasligini ta’kidlash joiz. Ayni paytda, bu tushunchalar o‘rtasidagi farqni hisobga olish kerak. Jahon amaliyotida ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos ekvivalentlari mavjud bo‘lib, turli xil bu boradagi fikr-mulohazalarni yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilish mumkin:

“O‘tish davri”da nisbatan an'anaviy va zamonaviy qarashlar mavjudligini e'tiborga olgan holda uni: 1) mamlakatda ayrim soha va yo‘nalishlarda islohotlarni amalga oshirish bilan bog‘liq rivojlanish bosqichi; 2) tub islohotlarni taqozo qiladigan alohida o‘tish davriga ajratish mumkin. O‘tish davri oraliq bosqich bo‘lgani bois, uning nihoyasi ham bo‘lishi, jamiyat yangi taraqqiyot darajasiga o‘tishi bilan bog‘liq falsafiy mushohada qilish talab etiladi. O‘tish davrini jamiyatning mavjud holatdagi rivojlanish imkoniyatlari tugagan va o‘sib kelayotgan ehtiyojlarni qondira olmagan sharoitda rivojlanishning yangi pog‘onasiga o‘tish uchun shart-sharoit yuzaga keladi va u zaruratga aylanadi.

O‘zbekistonda demokratik tuzumga o‘tish tartibli amalga oshdi, o‘zbekiston od'ir, shu bilan birga, uadopa to‘g‘ri uo‘lni tanlagani, dastlab, bozor munosabatlariga o‘tishning eng maqbul uo‘lini, demokratik islohotlarda o‘tish davrining hag bir bosqichiga mos strategiyalarni ishlab chiqib, amalga oshigdapi bois o‘tish davri muammolarini ba'zan qiiyinchilik va xatoliklar oqali bilan bo‘lsa ham, oqilona hal etayotgan mamlakat hisoblanadi. Taraqqiyotning asosini jamiyat ehtiyoji tashkil etar ekan, vujudga keladigan yangi ehtiyojlarda, jamiyat taraqqiyoti yangi bosqichidagi shart-sharoit, intellektlar va rahbarning xarizmatik roliga bevosita bog‘liq ijtimoiy hodisaga aylanadi.

**Xulosa va takliflar.** Jamiyat taraqqiyotining yuksak darajaga ko‘tarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan fuqarolik jamiyatiga o‘tish, hozirgi davrda, jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida insonlar ehtiyojlarining to‘la ta’minlanishini nazarda tutadi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatini ehtiyojlarni qondira oladigan oxirgi, bundan keyin rivojlanishga ehtiyoj qolmaydigan bosqich sifatida qarash ham ilmiy nuqtayi nazardan to‘g‘ri emasligini qayd etish lozim [5;218-b.]. Shu ma’noda, demokratik tamoyillar asosiga qurilgan yangi jamiyatga o‘tish davri bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

•birinchidan, demokratik jarayonlar yangi tuzumning ichida shakllanish jarayoni bilan birgalikda sodir bo‘ladi bu esa ayrim mamlakatlarda va xalqning erkin, farovon hayotini ta’minlash yo‘lidagi faoliyatida ham ko‘zga tashlanadi. Bu jarayon kvazi davlatlarda murakkab kechadi. Xuddi shu murakkab muammolarni hal qilish uchun to‘g‘ri yo‘lni tanlash, mustaqil demokratik jamiyatga aylanishiga olib keluvchi, jamiyat taraqqiyotini inson manfaatlariga qaratilgani uning to‘la ma’nodagi huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi;

•ikkinchidan, o‘tish davrida yuqori darajadagi moddiy imkoniyatlarning yuzaga kelishi bilan birga, tub ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlarni amalga oshirish hamda, xalq farovonligi va insonlarning erkinliklarining ta’minlangani bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nafaqat mamlakatning salohiyatiga bog‘liq, balki ana shu makonda yashayotgan aholining siyosiy madaniyati va mentalitetiga hamohang bo‘lishiga ham bog‘liqdir.

Mutaxassislarning ta’kidlashlariga ko‘ra totalitarizmga asoslangan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jamiyatlarning demokratik jamiyatga o‘tishining murakkabligi shundaki, sodir bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari obyektiv ehtiyoj sifatida davlat va uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari shaklan o‘zgargan bo‘lishiga qaramay, bu jarayon birining ichida ikkinchisi shakllansa-da, mazmunan u baribir ommani itoatda ushlab turishga, uning ustidan hukmronlik qilishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy davlat, eng avvalo, siyosiy tuzum tubdan o‘zgarib, xalq hokimiyatni boshqarishda bevosita yoki bilvosita ishtirok ustuvorligiga asoslanadi. Demokratik jamiyatga o‘tish jarayoni mamlakat hayotining barcha sohalarida tub o‘zgarishlarning amalga oshish mexanizmining natijasi sifatida pamouop bo‘ladi. Bir ijtimoiy tuzum sharoitida jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan tub islohotlar amalga oshirilmasa va o‘tilayotgan jamiyat manzili, maqsad va vazifalari aniq bo‘lmasa alohida o‘tish davri talab etilmaydi. Bunday holatda jamiyat o‘zining amaldagi negizini o‘zgartirmay rivojlanishi mumkin bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2022, 21-bet.
(2). Фалсафа қомусий луғат. Тошкент, “Шарқ”, 2004, 45-бет.
(3). Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. Тошкент, “Академия”, 2007, 96-бет.
(4). O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). T., 2023.
(5). Отамуродов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. Т., “Akademiya”, 2005, 218-бет.